

Nurmurod DJURAEV,

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi maxsus operatsiyalarni muvofiqlantirish boshqarmasi Maxsus tayyorgarlik o'quv markazi sikl boshlig'i,
E-mail:nurmurodabduyusupovich@mail.ru*

Falsafa fanlari doktori, professor v.b I.Siddiqov taqrizi asosida

PARTICIPATION OF CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS IN THE IMPLEMENTATION OF PUBLIC ADMINISTRATION FUNCTIONS IN UZBEKISTAN

Annotation

The article shows the history of the normative process of the introduction of the institution of civil society to support the implementation of the functions of state administration in the Republic of Uzbekistan, as well as its role today.

Key words: civil society, action strategy, public control, public administration, justice.

O'ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVI FUNKSIYALARINI AMALGA OSHIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ISHTIROKI

Annotsiya

Maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi funksiyalarini amalga oshirishga ko'maklashishda fuqarolik jamiyati institutini joriy etishining normatorlik jarayoni tarixi ko'rsatilgan, hamda bugungi kundagi uning o'rni.

Kalit so'zlari: fuqarolik jamiyat, harakatlar strategiyasi, jamoatchilik nazorati, davlat boshqaruvi, adolat.

УЧАСТИЕ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В ОСУЩЕСТВЛЕНИИ ФУНКЦИЙ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье рассматривается история норматворческого процесса введения института гражданского общества в содействии осуществления функций государственного управления в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: гражданское общество, Стратегия действий, общественный контроль, государственное управление, справедливость.

Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish maqsadida 1991 yil 15 fevralda O'zbekiston Oliy Kengashi "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun respublikada faoliyat yuritib kelayotgan jamoat birlashmalari faoliyatini tubdan isloh qilishga shuningdek, jamoat birlashmalari tuzilmalarini davlat va hukumat tizimidan ajratishga huquqiy shart-sharoitlar yaratib berildi. Respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida birinchi marta mazkur qonunda jamoat birlashmalarining maqsadlari xalqaro va demokratik mezonlar asosida ta'riflab berildi: "Jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqiy hamda erkinliklarni ro'yobga chiqarish va himoya qilish, fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamoat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish..."[1] maqsadida tuziladi.

O'z mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekiston tarixida ilk bor fuqarolik jamiyati institutlari-jamoat birlashmalarining mustaqilligi, ularning davlat va hukumatdan alohida faoliyat yurituvchi huquqiy sub'ekt ekanligi tan olindi. Bu holat fuqarolik jamiyatiga xos belgilardan biridir. Qonunda davlat idoralari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashish, shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat idoralari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmasligi huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2018 yil 4 maydagi "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5430-son Farmoni mazmun-mohiyati va ahamiyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha Maslahat kengashi rahbari A.Saidovning bildirgan fikricha: "hamyurtlarimizning davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, o'z navbatida, jamiyatimizni yanada demokratlashtirish, erkinlashtirish va fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish hamda izchil rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu ma'noda, keyingi davrda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, nodavlat notijorat tashkilotlarining (NNT) roli va ahamiyati, ijtimoiy faolligi, umuman, ular faoliyatining samaradorligini kuchaytirishga qaratilgan muhim chora-tadbirlar ko'rildi[2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 mayda qabul qilingan "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5430-son farmonida qayd etilganidek, o'tgan davrda ushbu sohaga doir 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi[3]. Bu haqda so'z borganda, avvalo, milliy qonunchilikda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yetakchi o'rin tutishini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Asosiy qonunimizning 34-moddasida fuqarolarning jamoat birlashmalariga uyushish huquqi mustahkamlab qo'yilgan. Ya'ni: "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar". Konstitutsiyamizning uchinchi bo'limidagi XIII-bob aynan "Jamoat birlashmalari" deb nomlanadi. Mazkur bobdagi moddalar fuqarolik jamiyati an'analarini tiklash, jamoat birlashmalari maqomini huquqiy tarzda rasmiylashtirish, ularning real va barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy qoidalardan tashkil topgan. Eng muhimi, Konstitutsiyamizda fuqarolik jamiyati institutlarini tashkil etish va ular faoliyatining huquqiy asoslari e'tirof etilgan, ularning davlat bilan o'zaro hamkorligi tamoyillari belgilangan. Konstitutsiyaviy normalarni amalda qo'llash maqsadida "Jamoat birlashmalari to'g'risida", "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida", "Siyosiy partiyalar to'g'risida", yangi tahrirdagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida", "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida", "Jamoat fondlari to'g'risida", "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida", "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida", "Homiyluk to'g'risida", yangi tahrirda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida" va "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida", shuningdek, "Ekologik nazorat to'g'risida", "Vasiyluk va homiyluk to'g'risida", "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida", "Parlament nazorati to'g'risida"gi[3] bir qancha qonunlar qabul qilindi.

Ma'lumki, Prezident tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi loyihasi, shuningdek, ushbu dasturiy hujjat doirasida 2017 va 2018 yillarda qabul qilingan Davlat dasturlari ham jamoatchilik muhokamasiga qo'yilib, so'ngra qabul qilingan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad davlat ahamiyatiga molik dolzarb masalalarni kompleks ravishda tahlil qilish, keng jamoatchilik qatlamlari, ekspertlar sharhi, fikr-mulohaza va takliflarini o'rganishdan iborat ekanini ta'kidlash lozim. Binobarin, davlat va jamiyat ahamiyatiga molik bunday hujjatlarni tayyorlashda butun O'zbekiston xalqining qiziqishlari to'la inobatga olinishini ta'minlash uchun aholi o'rtasida keng muhokamalar tashkil etish, doimiy ravishda xalq bilan muloqot qilish taqozo etiladi. Bunda, shubhasiz, fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, nodavlat notijorat tashkilotlari faol bo'lishi darkor.

Fikrimizcha nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan ma'lum bir ijtimoiy guruhning turli manfaatlari bir tizimga solinib, ularning keng jamoatchilikning xohish-irodasi sifatida davlat va hukumat organlariga yetkazilishi - siyosiy qarorlar qabul qilish uchun muhim ahamiyatga egadir. Qolaversa, bunda ko'plab manfaat guruhlari va ijtimoiy qatlamlar o'rtasida o'zaro kelishuv va muvofiqlashuv ro'y beradi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabr kuni bo'lib o'tgan qo'shma yig'ilishidagi ma'ruzasida fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida davlat va jamoat birlashmalari munosabatlariga to'xtalib, bunday tashkilotlarning davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi rolini kuchaytirish hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o'zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilovchi va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtiruvchi "Ijtimoiy sherikchilik to'g'risida"gi Qonun qabul qilish zarurligini ta'kidlab o'tgan edilar.

Natijada, 2014 yilda mamlakatimizda "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi va u 2015 yil 1 yanvardan kuchga kirdi. Ushbu Qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikni hayotga amaliy tatbiq qilishda muhim bosqich bo'ldi. Shuni ham ta'kidlash joizki, "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi ijtimoiy sheriklik sohasidagi ishlarning yakunlanganini emas, yangi mas'uliyatli bosqich boshlanganini anglatadi. Ijtimoiy sheriklik hozirgi kunda jahondagi ko'pchilik mamlakatlarning Mehnat kodekslarida, mamlakatlarni strategik rivojlantirishga aloqador hujjatlarda, turli sohalarga oid uslubiy tavsiyalar va me'yoriy hujjatlarda mustahkam o'rin egallamoqda.

Hozirgi kunda ijtimoiy sheriklikning mohiyati siyosat sub'ektlari: davlat tuzilmalari, tijorat korxonalari va notijorat tashkilotlari o'rtasidagi konstruktiv aloqadorlik sifatida anglashiladi. Ijtimoiy fanlarda ushbu sub'ektlar 1-, 2- va 3-sektor nomlari bilan yuritiladi. Ijtimoiy sheriklik har uch sektor vakillari o'rtasida hamkorlik paydo bo'lganda va bu hamkorlik har uch guruh va jamiyat uchun manfaatli ekanini anglashilganda vujudga keladi.

Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyat ko'rsatadigan huquqiy makonni yanada kengaytirish maqsadida Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar mohiyatidan kelib chiqib, amaldagi qonun hujjatlari yanada takomillashtirish maqsadida 2018 yil 12 aprelda qabul qilingan "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi[4] qonunga alohida to'xtalib o'tish zarur.

Avvalombor, "Jamoatchilik nazorati" boshqa nazorat turlaridan quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi: birinchidan, mazkur nazorat turi fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda boshqa fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshiriladi; ikkinchidan, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari muhofazasini ta'minlaydi; uchinchidan, ushbu nazoratning asosiy ob'ekti davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati hisoblanadi; to'rtinchidan, o'zida fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari manfaatlarini uyg'unlashtiradi, jamoatchilik fikri va kuchiga tayanadi.

2018 yil 12 aprelda qabul qilingan "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunning maqsadi davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratligi belgilab qo'yildi. Qonunga binoan, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan NNT, ommaviy axborot vositalari (OAV) jamoatchilik nazorati sub'ektlari etib belgilangan. 2018 yil 18 aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunga muvofiq, "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi, "Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonunlarga davr talablaridan kelib chiqqan holda tegishli o'zgartirishlar kiritildi[5].

Davlat idoralari, shu jumladan ijroiya hokimiyat organlari ustidan amalga oshiriladigan jamoat nazoratining mexanizmi qanday? Fikrimizcha, avvalo, mazkur mexanizm statik va dinamik holatda tegishli tarkibiy elementlardan iborat bo'lishiga e'tibor qaratish lozim.

-birinchi holatda jamoat nazoratini amalga oshiruvchi sub'ektlar tizimi (bular fuqarolik jamiyati institutlari: ya'ni, siyosiy partiyalar, inson huquqlari bo'yicha Ombudsman, jamoat va nodavlat notijorat tashkilotlar, turli jamg'arma, uyushma va assotsiatsiyalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari va boshqalar);

-ikkinchi holatda mazkur sub'ektlarning faoliyati, ushbu faoliyat shakllari, usullari hamda fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalari nazarda tutiladi. Bu bilan jamoat nazoratining nazariy konstruksiyasini uch jihatdan talqin qilish mumkin: 1) sub'ektlar tarkibi; 2) instrumental jihati; 3) huquqiy jihati.

Jamoat nazoratining sub'ektlar tarkibiga quyidagilar kiradi: a) jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlar, siyosiy partiyalar; b) alohida fuqarolar, ularning guruhlari; s) mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, jumladan, mahalla tuzilmalari; d) ommaviy axborot vositalari.

Horij tajribasiga e'tibor berilsa, qator davlatlar amaliyotida huquqni muhofaza qiluvchi organlar huzurida Jamoatchilik kengashlari faoliyat yuritishi kabi shakllarning guvohi bo'lishi mumkin. Shundan kelib chiqib, mamlakatimiz Bosh Prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa va boshqa vazirliklar huzurida, shuningdek, viloyat, shahar va tuman hokimliklari huzurida ham shunday Jamoatchilik kengashlarini bosqichma -bosqich shakllantirib borish maqsadga muvofiq. Bunday kengashlar, bir tomondan, davlat idoralarning tegishli faoliyatini kuzatib, doimo undan xabardor bo'lib turadi, ikkinchi tomondan, davlat idoralari bilan aholi o'rtasida bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Mamlakatimizda kechayotgan islohotlar, xususan ma'muriy islohotlar va modernizatsiyalash jarayonlari sharoitida jamoat nazoratining samardorligi va ta'sirchanligini oshirish yo'llari haqida o'ylash nihoyatda muhim vazifadir. Jamoatchilik nazoratining samardorligi deganda ushbu nazoratning maqsadiga erishish, vazifalari bajarilishiga ko'maklashish, davlat funksiyalarining amalga oshirilishida ijobiy natijalarga ega bo'lish tushuniladi. Bu institutning samardorligini ta'minlashda nazoratning mustaqilligi, xolisligi va nazorat sub'ekti erkin harakatlanishi prinsiplariga tayangan holda, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan jamoat ta'siri choralarini qo'llay oladigan siyosiy-huquqiy maqomga ega bo'lishi muhimdir.

Fikrimizcha, jamoatchilik nazoratini yanada samarali yo'lga qo'yish, fuqarolik jamiyati institutlarining bu boradagi faoliyatini yanada yuksaltirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi o'rinli bo'lar edi:

1. Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishni samarali tashkil etish uchun davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligining, ijtimoiy sherikchiligning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish darkor;

2. Jamoatchilik nazoratini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish va ular orqali jamoatchilik nazoratining samarali natijalarini ifodalashga yo'naltirilgan dasturlar tayyorlash hamda ularni muntazam yoritib borilishi zarur;

3. Jamiyatda jamoatchilik nazoratini shakllantirishning yangi yo'nalishlari va istiqbollari aniqlash maqsadida xalqaro hamda respublika miqyosida ilmiy-nazariy anjumanlar, konferensiyalari, davra suhbatlari o'tkazish va bu boradagi ilmiy tadqiqot izlanishlarni qo'llab-quvvatlash lozim.

Umumiyashtirilganda, davlat boshqaruvining evolyusion rivojlanishini muhim elementi, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va jamiyatni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni ochish, hukumatni modernizatsiya qilishdir. Bu hozirgi davrda paydo bo'layotgan global muammolar va mamlakatni demokratik rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiq boshqaruv usullarini maqsadli, tezkor va tizimli ravishda taqsimlashni o'z ichiga oladi.

Hozirgi bosqich, O'zbekistonda zamonaviy davlat menejmenti tizimi barqaror rivojlanishning ijtimoiy-siyosiy omillari, o'zini o'zi boshqarishning siyosiy mexanizmlarini takomillashtirish va istiqbolda zaruriy resurslarni taqsimlash va ta'minlash uchun turli boshqaruv usullari va yondashuvlarini moslashuvchan tizimini joriy etish zarurati mavjud. Bu borada:

1. O'zbekistonda davlat boshqaruvining hozirgi bosqichida, uni demokratlashtirish va modernizatsiyalashning asosiy yo'nalishlari va mexanizmlariga: davlat boshqaruvining qonunchilik bazasini takomillashtirish, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, boshqaruvning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish, markaz va mahalliy hokimiyat organlari, davlat tuzilmalari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida samarali ijtimoiy sheriklik munosabatlarini joriy etish hamda davlat-xususiy sektor o'rtasida "outsorsing" va "kontrakting aut" usullarini qo'llash.

2. Rivojlangan demokratik mamlakatlarda Hukumatning qonunchilik jarayonidagi ishtiroki ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ulardan milliy qonun hujjatlarini takomillashtirishda foydalanishimiz mumkin. Chunonchi, Bosh vazirning qonun loyihalari muhokamasida o'z nutqi bilan kafolatli ishtirok etish huquqini O'zbekiston qonunchiligiga ham joriy etish maqsadga muvofiq.

3. "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasi 3-qismida "Xalq deputatlari kengashi va hokim qabul qilgan hamda chiqargan hujjatlar imzolangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi, basharti ana shu hujjatlarda o'zga tartib belgilanmagan bo'lsa", deyilgan. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 84-moddasida qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning matbuotda e'lon qilinishi ular qo'llanilishining majburiy sharti ekanligi belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunining 26-moddasida "O'zbekiston Respublikasining qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari qarorlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari, agar hujjatlarining o'zida boshqa muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, rasman e'lon qilinganidan so'ng o'n kundan keyin kuchga kiradi", deb qayd qilingan.

4. Aholi keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan va xalqimiz tarixidan keng o'rin olgan mustaqil hamda barqaror fuqarolik jamiyati institutlari demokratik qadriyatlar, inson huquqlari, erkinligi va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda hamda jamiyat boshqaruvining muhim siyosiy instituti sifatida xizmat qilmoqda. "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilining izchil amalga oshirilishi nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, kasaba uyushmalari, jamoat birlashmalari, jamg'armalar va mustaqil ommaviy axborot vositalarini shakllantirish hamda rivojlantirishning mustahkam qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazasini yaratilishiga sabab bo'ldi. 2018 yil 4 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Ushbu hujjat asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashi tashkil etildi. Eng muhimi, Farmondan Prezidentimizning bugungi kun va yaqin istiqbolda O'zbekistondagi fuqarolik jamiyati institutlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim tashabbuslari o'rin olgan.

Shunga qaramay, ijtimoiy sheriklik-davlat organlari va NNT o'rtasida fuqarolarning keng ko'lamli ijtimoiy muammolarini hal qilishga, ayniqsa, yoshlarning tashabbuslari va zamonaviy g'oyalarini haqiqatda ilgari surishga qaratilgan hamkorlikning samarali mexanizmiga aylana olgani yo'q. Shu bois, davlat sektorlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida konstruktiv hamkorlikning yangi modellarini joriy etish, bunda O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuniga ayrim o'zgartirishlar kiritish zaruriyati mavjud.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonuni.//O'zbekiston Respublikasining Qonunlari. 4-son. -T., Adolat, 1993. B.155.
2. <http://www.uza.uz>. Fuqarolik jamiyati institutlari yuksalik bosqichida. // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha Maslahat kengashi rahbari A.Saidov bilan suhbat matnidan. T.: 2018 yil 8 may.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 4 maydagi PF-5430-son farmoni.
4. www.lex.uz. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
5. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni. –T.: 2018 yil 12 aprel, O'RQ-474-son.